

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Г.Х.Собирова</b>	
Флавоноиды и их антидиабетические эффекты: клеточные механизмы .....	542
<b>M.A.Toshtemirova</b>	
Bakteriya hujayrasi qo'shilmalari va kapsulalari .....	546
<b>M.A.Toshtemirova</b>	
O'simliklardan tabiiy dori preparatlar olish.....	549
<b>M.A.Toshtemirova</b>	
Tayoqchasimon va sharsimon bakteriyalar va spiroxetalar, ularning morfologiyasi .....	552
<b>F.R.To'xtasinov</b>	
Bodring ekini nematodalarining mavsumiy dinamikasi (Oltiariq tumani misolida) .....	556
<b>F.R.To'xtasinov</b>	
Pomidor rivojlanish davrlarida fitonematodalarning turlar tarkibi va miqdor dinamikasi.....	562
<b>F.R.To'xtasinov</b>	
Kartoshka o'simligida uchrovchi fitonematodalarning turlar xilma-xilligi va ekologik-trofik guruxlari .....	566
<b>Sh.Q.Yuldasheva, D.X.Mo'ydinova</b>	
Ninachilarni tabiatda tarqalishi va unga ta'sir etuvchi omillar.....	570
<b>Sh.Q.Yuldasheva, M.I.Teshaboyeva</b>	
Farg'ona vodiysi nok bog'lari hosildorligiga nok shirinchasining ta'siri .....	573
<b>Sh.Q.Yuldasheva, S.Nosirova</b>	
Anjirning asosiy zararkunandalarini tur tarkibi va ularga qarshi uyg'unlashgan kurashish tizimining afzalliklari .....	577
<b>Sh.Q.Yuldasheva</b>	
Panaphis juglandis shirasining morfologik belgilari variatsiya ko'rsakichlarini o'ziga xosligi....	581
<b>A.A.Yoqubov</b>	
Kuzgi tunlam ( <i>Agrotis segetum</i> (Denis & Schiffermüller) 1775) lichinkalari rivojlanishiga tuproq namligining ta'siri .....	586
<b>K.X.G'aniyev</b>	
Aphis pomi va Aphis punicae shiralarining biologik xususiyatlari (Sirdaryo viloyati misolida).....	590
<b>O.I.Qayumova</b>	
Hyles euphorbiae (Linnaeus, 1758) ning (Lepidoptera, Sphingidae) morfologik tavsifi .....	594
<b>O.I.Qayumova</b>	
Janubiy Farg'onaning Sphingidae oilasi kapalaklari ozuqa ixtisosligi.....	599
<b>T.E.Xomidova</b>	
Ko'krak saratonining biologik markerlari.....	604
<b>T.E.Xomidova, S.Israiljonov</b>	
Ko'krak bezi saraton oldi holatlarining skrining muammolari (Farg'ona viloyati misolida).....	608
<b>A.M.Turgunova, Ch.Sh.Abduqaxhorova, B.M.Sheraliyev</b>	
Katta Farg'ona kanali va chodaksoyda tarqalgan Kushakevich yalangbalig'ning morfologik xususiyatlari.....	612
<b>D.B.Fayziyeva, S.K.Allayarov</b>	
Amudaryo havzasini endemigi <i>Oxyneomacheilus oxianus</i> (Kessler, 1877) (Teleostei: Nemacheilidae) ning morfologik tahlili.....	616
<b>I.I.Zokirov, M.A.Axmadjonova</b>	
Uzunburun qo'ng'izlar (Coleoptera: Curculionidae)ning tarqalishi va ozuqa spektriga oid yangi ma'lumotlar .....	621
<b>G.M.Zokirova, M.Sh.Ro'ziboyev</b>	
Farg'ona vodisida qayd etilgan ko'l baqasi ( <i>Pelophylax ridibundus</i> ) va yashil qurbaqaning ( <i>Bufoates pewzowi</i> ) tur tavsifi .....	627
<b>G.M.Zokirova, Z.A.Ibrohimova</b>	
Koksinellid qo'ng'izlari (Coleoptera: Coccinellidae) vakillarining trofik munosabati .....	632
<b>G.M.Zokirova, N.A.Xomidova</b>	
Oltinko'z (Chrysopidae: Chrysoperla) entomofagini ko'paytirish biologiyasi.....	636
<b>G.M.Zokirova, M.A.Masodiqova, I.B.Hoshimova</b>	
Erebidae (Insecta: Lepidoptera) oilasi faunasiga doir yangi ma'lumotlar .....	640
<b>G.M.Zokirova, A.Q.Saidjamolov</b>	
Markaziy Farg'ona hududining ayrim shiralariga (Hemiptera: Aphididae) doir ma'lumotlar .....	643



UO'K: 597,8

**FARG'ONA VODIYSIDA QAYD ETILGAN KO'L BAQASI (PELOPHYLAX RIDIBUNDUS)  
VA YASHIL QURBAQANING (BUFOTES PEWZOWI) TUR TAVSIFI**

**В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ ЗАРЕГИСТРИРОВАНЫ ОЗЕРНАЯ ЛЯГУШКА  
(PELOPHYLAX RIDIBUNDUS) И ЗЕЛЕННАЯ ЛЯГУШКА**

**LAKE FROG (PELOPHYLAX RIDIBUNDUS) AND GREEN FROG (BUFOTES PEWZOWI)  
SPECIES DESCRIPTION IN FERGANA VALLEY**

**Zokirova Gulnora Mamajonovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi,b.f.f.d (PhD)

**Ro'ziboyev Muxtorjon Shavkatjon o'g'li<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti bakalavirianti

**Annotatsiya**

*Farg'ona vodiysi amfibiyalarini o'rganish maqsadida vodiyning bir nechta tabiiy-geografik nuqtalarida va aholi yashash joylari atrofida kuzatuv ishlari olib borildi. Kuzatuvlar natijasida suvda hamda quruqlikda yashovchilar sinfiga mansub turlar ro'yxatga olindi. Ro'yxatga olingan turlar orasida bufotes pewzowi va pelophylax ridibundus keng tarqalish arealiga ega bo'lib, empirik tadqiqotlar natijasida ularning 10 ga yaqin individlari qayd etildi. Bufotes pewzowi aholi turar joylarida ham uchrovchi sinantrop tur ekanligi tasdiqlandi. Quyida bufotes pewzowi va pelophylax ridibundus sistematikasi va tur tavsifi bo'yicha qimmatli ma'lumotlar o'rinnagan.*

**Аннотация**

С целью изучения амфибий Ферганской долины наблюдательные работы проводились в нескольких природно-географических точках долины и вокруг населенных пунктов. В результате наблюдений зарегистрированы виды, относящиеся к классу водных и наземных обитателей. *Bufo pewzowi* и *Pelophylax ridibundus* имеют широкий ареал среди зарегистрированных видов, и в результате эмпирических исследований зарегистрировано около 10 их особей. Подтверждено, что *Bufo pewzowi* является синантропным видом, который встречается и в населенных пунктах. Ценные сведения о систематике и видовом описании *Bufo pewzowi* и *Pelophylax ridibundus* приведены ниже.

**Abstract**

*In order to study the amphibians of the Ferghana Valley, observation work was carried out in several natural and geographical points of the valley and around the residential areas. As a result of observations, species belonging to the class of aquatic and terrestrial inhabitants were registered. *Bufo pewzowi* and *Pelophylax ridibundus* have a wide distribution area among the registered species, and as a result of empirical research, about 10 of their individuals were recorded. It has been confirmed that *Bufo pewzowi* is a synanthropic species that can also be found in human settlements. Valuable information on the systematics and species description of *Bufo pewzowi* and *Pelophylax ridibundus* is provided below.*

**Kalit so'zlar:** *Bufo pewzowi, pelophylax ridibundus, sistematika, sinantrop, amfibya, Farg'ona*

**Ключевые слова:** *Bufo pewzowi, pelophylax ridibundus, систематика, синантроп, амфибия, Фергана*

**Key words:** *Bufo pewzowi, pelophylax ridibundus, systematics, synanthropus, amphibian, Ferghana*

**KIRISH**

Bioxilma-xillikni saqlash, o'l kamiz faunasini tadqiq qilish va atroficha o'rganish, ularning tur tarkibi va milliy tur genofondini tashkil qilish hamda ularning morologik, biologik, ekologik xossalariini tahlil qilish bugungi kunda g'oyat dolzarb va muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Vatanimizda ham bu kabi masalalarni hal qilish, milliy tur boyligimizni kelgusi avlodlarga yetkazish bo'yicha qator ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2019 yildagi 484-sonli "2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga

muvofiq ishlab chiqilgan 2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasida :

Antropogen ta'sir ostida kuchayayotgan tabiiy ekotizimlarning umumiyligi tanazzuli va fragmentatsiyasi areallarning va ham kamyob, ham resurs (ovlanadigan) turlarning soni qisqarishiga olib keldi. Bunday turlar yovvoyi tabiatda yo'qolib ketish xavfiga ega va Qizil Kitobga kiritish uchun tavsiya qilinganligi; Mavjud bioxilma-xillikni saqlab qolish uchun boy tabiiy meros asosida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning to'laqonli tarmog'ini tashkil etish O'zbekistonni rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanishi to'g'risidagi masalalar ko'rib chiqildi [6].

Yuqoridagilarni inobatga olib mamlakat faunistik va floristik tarkibini o'rganish, ularning tarqalish areallarini baholash va monitoring o'tkazish muhim masalalardan hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekistonning gerpetofaunistik ro'yxati so'nggi 2006-2021 yillarda shakllantirilgan bo'lib unga ko'ra, respublikamiz hududida suvda hamda quruqlikda yashovchilarning 3 oilaga mansub 4 turi qayd etilgan [5]. Jumladan, xalqaro amfibiyalar qidiruv bazasi ([www.amphibia-web.org](http://www.amphibia-web.org)) ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda amfibiyalarning 3 turi mavjud [7].

Kuzatishlarimiz 2024-yilning aprel-may oylarida Farg'ona viloyatining Marg'ilon shaharining Toshloq tumaniga yaqin qismida, Toshloq (Yettiko'l), Namangan viloyati (Chortoq suv ombori) hududlarida olib borildi (1-jadval). Vodiylar amfibiyalarini o'rganish maqsadida olib borilgan kuzatuv tadqiqoti natijasida ko'l baqasi va yashil qurbaqaning bir necha individular ro'yxatga olindi. Dastlab, barcha namunalar Bannikov va Laxanovning identifikatsiya kalitlaridan foydalangan holatda morfologik xususiyatlar asosida tur darajasiga identifikatsiya qilindi [2,4]. Aniqlangan namunalar xalqaro qidiruv bazalardagi ma'lumotlarga ([www.amphibia-web.org](http://www.amphibia-web.org)), Global Biodiversity Information Facility ([www.gbif.org](http://www.gbif.org)) solishtirildi va tekshirildi [7,9].

Namunalar evtanizatsiya qilingandan so'ng 10 foizli formalin eritmasida fiksatsiya qilindi. Formalin eritmasida 5-7 kun saqlangan namunalar doimiy saqlash uchun 75 foizli spirit ( $C_2H_5OH$ ) eritmasiga olindi. Namunalarni tutish, ularni evtanizatsiya qilish va fiksatsiyalash jarayoni Amerika Ixtiologlar va Gerpetologlar Jamiyati yo'riqnomalari (ASIH) [1] va boshqa gerpetofaunistik ko'rsatmalarga [3] ko'ra tayyorlandi.

**1-jadval**

### Amfibyalarni faunistik tadqiqot o'tkazilgan joylar.

N	Tur nomi	Joy nomi	Koordinata	Balandlik	Sana
1	<i>Pelophylax ridibundus</i>	Toshloq tumani, Yettiko'l	40°32'26"N 71°47'52"E	460 м	24.04. 2024
2	<i>Bufotes pewzowi</i>	Toshloq tumani, Yettiko'l	40°32'26"N 71°47'52"E	460 м	24.04. 2024
3	<i>Pelophylax ridibundus</i>	Namangan viloyati, Chortoq	41°10'58"N 71°48'58"E	689 м	30.04. 2024
4	<i>Bufotes pewzowi</i>	Marg'ilon shahar	40°28'22"N 71°46'15"E	490 м	25.05. 2024

### NATIJA VA MUHOKAMA

Farg'ona vodiysi amfibiyalar faunasini o'rganish maqsadida olib borilgan kuzatuv ishlari natijasida mansub 10 ga yaqin individular ro'yxatga olindi. Ro'xatga olinga individular 2 oila 2 urug'ga mansub 2 turga mansub: Ko'l baqasi (*Pelophylax ridibundus*) va yashil qurbaqa (*Bufotes pewzowi*). Biz quyida mazkur turlarning sistematikasi va tur tavsifi bila tanishamiz.

<b>Domen (domain) : Yadrolilar — Eukariota Whittaker &amp; Margulis, 1978</b>
Qirollik (Kingdom) : Hayvonot olami — Animalia Linney, 1758
Tip (Phylum) : Xordalilar tipi — Chordata Gekkel, 1874
Sinf (Class) : Suvda hamda quruqlikda yashovchilar — Amphibia Gray, 1825
Turkum (Order) : Dumsizlar turkumi — Anura Dumeril, 1806
Kenja turkum (Suborder) : Neobatrachia Reig, 1958
Katta oila (Superfamily) : Kvakhshalar katta oilasi — Hyloidea Stannius, 1856
Oila (Family) : Haqiqiy qurbaqalar oilasi — Bufonidae Grey, 1825

## BIOLOGIYA

<i>Urug'</i> (Genus): Haqiqiy qurbaqalar urug'i — <i>Bufoates Rafinesque, 1815</i>	
<b>1.Tur (Species) : Markaziy Osiyo yashil qurbaqasi — <i>Bufoates pewzowi</i> Bedriaga, 1898</b>	
<i>Oila (Family) : Baqalar oilasi — Ranidae Rafinesque , 1814</i>	
<i>Urug'</i> (Genus): Yashil baqalar urug'i — <i>Pelophylax Fitzinger, 1843</i>	
<b>2.Tur (Species) : Ko'l baqasi — <i>Pelophylax ridibundus Pallas, 1771</i></b>	



*Bufoates pewzowi* Bedriaga, 1898  
(21.05.2023. rasm muallifi: Aleksey Katz, Navoiy)



*Pelophylax ridibundus* Pallas, 1771  
(27.03.2023. rasm muallifi: Amael Borzee, Farg'ona)

***Bufoates pewzowi* Bedriaga, 1898**  
**Markaziy Osiyo yashil qurbaqasi (Central Asian green toad)**



**Sinonimlar (Synonyms):** *Bufo viridis pewzowi*, *Bufo viridis var. pewzowi*.

**Yer yuzida tarqalishi (Distribution worldwide) :** Mo'g'uliston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Xitoy, O'zbekiston

**O'zbekistonda tarqalishi (Distribution in NL) :**

Buxoro (40.3N, 63.8E); Samarqand (39.4N, 67.0E; 39.7N, 66.9E)

Farg'ona (40.3N, 71.8E; 40.3N, 71.9E; 40.5N, 71.7E); Jizzax (40.5N, 66.8E; 40.7N, 67.7E)

Namangan (41.1N, 71.8E); Navoiy (40.7N, 66.6E)

Toshkent (41.6N, 69.7E; 41.56, 70.0E; 41.1N, 70.1E; 41.6N, 69.9E)

**Yashash joyi (Habitat in NL):** O'rmonlar, butazorlar, yaylovlar, botqoqlar, ichki suv havzalari, cho'l.

**Kichik turlar (Subspecies) :**

*Bufoates pewzowi* subsp. *pewzowi* Bedriaga, 1898 ;

*Bufoates pewzowi* subsp. *strauchi* Bedriaga, 1898.

**Qizil ro'yxat toifasi (Red List Category):** Pastroq xavf darajasi [Least Concern LC (-)]  
(IUCN 2023; last assessed 2021). O'zbekistonda xavf holatida emas.

**Tahdidlar (Threats):** Biologik resurslardan foydalanish, qishloq va suv xo'jaligi bilan bog'liq tahdidlar, iqlim o'zgarishi va qattiq ob-havo.

**Himoya chorralari (Conservation):** Yer va suv muhofazasi

***Pelophylax ridibundus* Pallas, 1771**  
**Ko'l baqasi — Water frogs**



**Sinonimlar (Synonyms):** *Pelophylax ridibunda*, *Rana ridibunda*.

**Yer yuzida tarqalishi (Distribution worldwide)** : Afg'oniston, Albaniya, Armaniston, Avstriya, Ozarbayjon, Bahrayn, Belarusiya, Bosniya va Gertsegovina, Bolgariya, Xorvatiya, Kipr, Chexiya, Daniya, Estoniya, Finlyandiya, Frantsiya, Gruziya, Germaniya, Gretsiya, Vengriya, Iraq, Isroiil, Italiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Latviya, Litva, Lyuksemburg, Makedoniya, Sobiq Yugoslaviya Respublikasi, Moldova, Chernogoriya, Niderlandiya, Polsha, Ruminiya, Rossiya Federatsiyasi, Saudiya Arabistoni, Serbiya, Slovakiya, Sloveniya, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston, Ukraina O'zbekiston

**O'zbekistonda tarqalishi (Distribution in NL) :**

Andijon (40.8N, 73.0E; 40.9N, 72.0E); Buxoro (39.6N, 64.7E); Samarqand (39.7N, 66.9E)

Farg'ona (40.3N, 71.8E; 40.3N, 71.9E; 40.7N, 71.5E); Jizzax (40.9N, 66.8E)

Namangan (41.1N, 71.8E; 41.1N, 71.6E; 41.0N, 71.3E; 41.2N, 71.5E)

Qashqadaryo (38.9N, 64.7E); Surxondaryo (37.8N, 66.7E); Toshkent (41.3N; 69.3E)

**Yashash joyi (Habitat in NL):** O'rmonlar, butazorlar, o'tloqlar, g'orlar va yer osti yashash joylari, botqoqlar, ichki suv havzalari, cho'l.

**Kichik turlar (Subspecies) :** Mavjud emas (None)

**Qizil ro'yxat toifasi (Red List Category):** Pastroq xavf darajasi [Least Concern LC (-)] (IUCN 2023; last assessed 2021). O'zbekistonda xavf holatida emas.

**Tahdidlar (Threats):** Katta tahdidlar mavjud emas. Ammo haddan tashqari ifloslanish xilma-xilligiga ziyon keltirishi mumkin.

**Himoya chorralari (Conservation):** Yer va suv muhofazasi

### XULOSA

O'zbekiston amfibiyalarining tur tarkibini va ularning tarqalish arealini o'rganar ekanmiz, gerpetofaunada amfibiyalar 5 % (3ta tur) ulushni o'z ichiga olishini aniqladik. Mamalakatimiz suvda hamda quruqlikda yashovchilari orasida ko'l baqasi faunasini keng tarqalish arealiga ega ekanligi va bu turning nafaqat O'zbekistonda, balki, butun dunyoda ham keng areal hajmiga ega ekanligi diqqatimizni tortdi. **Yashil qurbaqalar esa** o'rmonlar, butazorlar, yaylovlar, botqoqlar, ichki suv havzalarida ucrashi bilan birga **insonlar yashaydiga uyłarda, daraxt kovaklarida** ham uchrovchi sinantrop tur (odamlar bilan bir hududda uchrovchi tur) ekanligini aniqladik.

**BIOLOGIYA**

Yashil qurbaqalar kabi sinantrop turlarni aniqlash, ularning biologiyasi va ekologiyasini chuqur tadqiq qilish odam va tabiat o'rtasidagi moslashuvchanlikni tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa urbanoekosistemalarda tarqalgan faunaning turli texnogen omillar ta'sirida o'zgarishini va moslashishini baholash, inson va tabiat o'rtasidagi keskin munosabat qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. American Society of Ichthyologists and Herpetologists (ASIH). (2004). GUIDELINES FOR USE OF LIVE AMPHIBIANS AND REPTILES IN FIELD AND LABORATORY RESEARCH.USA,42 <https://doi.org/10.3390/ani13152516>
2. Банников А.Г., Даревский И.С., Рустамов А.К. Земноводные и пресмыкающиеся СССР. М. Мысль. 1971 г. – Стр.415
3. George R.Pisani. A Guide to Preservation Techniques for Amphibians and Reptiles. (1973). *Society for the Study of Amphibians and Reptiles*. Kansas (USA), 26
4. J.L.Laxanov. (2013). O'zbekistonning umurtqali hayvonlar aniqlagichi. Toshkent: "Fan va texnologiya", 35-38 b.
6. Showler, David A. 2018. *A Checklist of the Amphibians and Reptiles of the Republic of Uzbekistan with a Review and Summary of Species Distribution*.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2019 yilda 11-iyun). "2019-2028- yillarda davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida ". 484-sonli qaror.

**FOYDALANILGAN XALQARO QIDIRUV BAZALARI**

8. AmphibiaWeb. Xalqaro amfibiyalar qidiruv bazasi (<https://amphibiaweb.org/index.html>) (murojaat etigan sana:27.05.2024).
9. International Union for the Conservation of Nature – IUCN. Xalqaro qizil kitob .([www.iucn-redlist.org](http://www.iucn-redlist.org) ). (murojaat etigan sana:24.05.2024)
10. Global Biodiversity Information Facility (<https://www.gbif.org/>). (murojaat etigan sana:26.05.2024)